



THE HUMAN FACTOR IN THE STUDY OF LANGUAGE AND SPIRIT RELATIONS

Olgirova Nafisa Bahodirovna

Uzbekistan State World Language University

Lecturer of the Department of French language and practice
at the Roman-German faculty

Abstract:

The study of the relationship between language and address, language and thinking, language and society, language and psyche, resulting in a broad and in-depth study of phenomena such as the human factor, its language, gender, age, lifestyle, worldview, psyche, dreams knowledge is acquired. From this point of view, the importance of scientific research in Uzbek linguistics today is obvious.

Keywords:

Psycholinguistics, thinking, language, society, research.

Psixolingvistika - nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikannng sintezidan paydo bo'lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o'zaro bog'lanishli eksperiment, "semantik differensial" kabi va boshqa eksperimental usullar qo'llanadi. Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar [ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o'rgatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi; nutqiy tasir ko'rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ'ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (mas, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash); mashina tarjimasini hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolari va boshqa]ni nazariy jihatdan tushuntirish zarurati tufayli o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. **"PSIXOLINGVISTIKA"** termini o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O'zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Lingvistika, psixolingvistika, psixofiziologiyaga oid zamonaviy tadqiqotlarda nutq semantikasi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda (T.N.Ushakova, E.M.Strunina, A.M.SHaxnorovich va boshq.). Nutqiy faoliyat mexanizmlarini o'rganuvchi psixofiziologik tadqiqotlar fanning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi (T.N.Ushakova, T.P.Xrizman va boshq.). XX asrning so'nggi o'n yilligida lingvistlar, psixologlar tomonidan «til qobiliyatlari» muammosi faol muhokama qilindi (F. De Sossyura, L.V.Щerba, J.Grin, V.I.Makarova va boshq.). Til qobiliyati deganda til tizimini o'zlashtirib olishda malaka va ko'nikmalarni jadal shakllantirishga ko'maklashadigan o'ziga xos xususiyatlar tushuniladi.

Psixologik hodisa sifatida insonning nutqiy qobiliyatining to'liq konseptual modelini qurishga nutqni psixologik tadqiq etishning istiqbolli vazifalaridan biri sifatida qaraladi (T.N.Ushakova). Modelda faxmlab etilgan axborotni nutq yordamida uzatish, ya'ni nutqiy semantika muammosi; bunda grammatik qoidalardan foydalanish, ya'ni tilni ishga solish; akustik kanalni ishga tushirish imkoniyati; nutqdan muloqot va ijtimoiy aloqa vositasi sifatida foydalanish; ushbu barcha hodisalarni miya harakatiga muvofiq holda tavsiflash kabi hodisalar o'z izohini topishi lozim. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: «Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan

haqiqiy rivojlanish jarayonidir». Nutq genezisini bunday tushunish psixologik, pedagogik va lingvistik tadqiqotlarda nutqiy rivojlanish jihatlari o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab, nutq ontogenezi olimlarni qiziqtirib qoldi. K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o'qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o'z fikrlarini bildirdi. Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro'y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki u nutqni umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida faol o'zlashtiradi. A.A.Leontev L.S.Vygotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Til qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarning etilganligi bilan, o'zga tomondan esa, ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq. M.I.Lisina konsepsiyasi ruhida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muloqot – bolada so'zning paydo bo'lishi fakti, vujudga kelish muddatlari va bola nutqi rivojlanishining sur'atlarini belgilab beruvchi muhim omildir. Ontogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinchalik esa – fikrlash, o'z xulqini boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi. Bola nutqi – bola o'zida ifoda etadigan o'ziga xos submadaniyatning ahamiyatga molik ovozidir. Nutqni o'stirish va rivojlantirish nafaqat bolani atrofdagi olam bilan tanishtirish, balki umumiy psixik rivojlanishning asosi bo'lib ham hisoblanadi. Bola nutqini rivojlantirish umuman shaxsni shakllantirish va butun psixik jarayonlar bilan bog'liqdir (A.V.Zaporozets, L.A.Venger, L.S.Vygotskiy, A.R.Luriya, A.A.Lyublinskaya, N.N.Poddyakov, S.L.Rubinshteyn, F.A.Soxin, V.S.Muxina va boshq.). Nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurda bola nutqini rivojlantirish, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, o'zga tomondan esa – to'satdan yuz berishlik, «o'zini-o'zi harakatga keltirish» bilan tavsiflanishi tushuniladi. Gumboldt, I.E.Boduen de Kurtene, L.V.IIqerbalarning o'zini-o'zi rivojlantirish haqidagi g'oyalari F.A.Soxin tomonidan bolalarga ona tilini o'rgatish metodikasini asoslash uchun foydalanilgan va umumlashtirilgan. F.A.Soxin va uning shogirdlari yordamida nutqning o'zini-o'zi rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta'lim pedagogikasi va bolalar psixologiyasida chuqur nazariy asosga ega bo'ldi. F.A.Soxinning xizmati va uning novatorligi shundan iboratki, u til umumlashmalarining tabiatini nutqni rivojlantirishning ijodiy xususiyati bilan bog'lay oldi. Boshqacha qilib aytganda, bolaning umumlashmalar sifatida tilning asosiy birliklarini o'zlashtirishi unga ijodiy tus beradi (K.I.Chukovskiy). Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. SHundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib etib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar. Verbalgacha bo'lgan davr (bola hayotining dastlabki davri) yoki tayyorlov bosqichining psixologik va psixolingvistik tahlili aynan ushbu davrda nutqning muhim omillari shakllanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. M.I.Lisining qayd etishicha, bola o'z hayotining birinchi yilida atrofdagi kattalar bilan muloqot shaklini ikki marta o'zgartiradi. Birinchi shakl – yaqin kattalar bilan vaziyatli-shaxsli muloqot (2-oylarga kelib). Birinchi yarim yillik oxirida ushlarini o'rganib olgan bola kattalar bilan muloqotning nisbatan murakkab bo'lgan o'zga darajasiga o'tadi. Bu vaziyatli- amaliy muloqotdir. Nutqning vujudga kelish bosqichi (bir yoshdan boshlab o'zga yoshning yarmigacha) bolaning atrofdagi kishilar bilan muloqotining ikki bosqichi – verbalgacha bo'lgan va verbal bosqichlar o'rtasidagi o'tkinchi pog'ona sifatida xizmat qiladi. Mazkur bosqichning asosiy mazmunini quyidagi ikki voqea tashkil qiladi: atrofdagi kattalar nutqini tushunish vujudga keladi va dastlabki verballashuvlar paydo bo'ladi. Har ikkala voqea ham bir-biri bilan nafaqat vaqt bo'yicha, balki mohiyatiga ko'ra ham uzviy bog'liqdir. Ular kattalar bola oldiga qo'yadigan yagona kommunikativ vazifani hal qilishning ikkita yagona usulidir. Bolalarning passiv nutqni o'zlashtirib olishlari va ularning dastlabki so'zni aytishlari hal qiluvchi darajada quyidagi uch jihatga, ya'ni emotsional

aloqalar, birgalikdagi harakat chog'idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo'lgan kommunikativ omilga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 88 б.
2. Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. - Тошкент: "Шарқ". –Б.126.
3. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 60 б.
4. Акбарова З. Мурожаат шаклининг тасниф асослари // Ўзбек тили ва адабиёти, 74-76-б.
5. www.ziyonet.uz
6. www.google.uz
7. www.libruary.com